



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 16-dekabr, seshanba,
142 (24.172)-son

O'zbek xalq
maqoli

Ko'kka
boqma,
ko'pga
boq

VILOYAT RAHBARI QURILISH OBYEKTLARIDA

ViLOYAT hokimi Adiz Boboyev Samarqand shahri-ning temiryo'l orti hududida amalga oshirilayotgan qurilish-obodonlashtirish ishlari bilan tanishdi.

Hududda Renovatsiya dasturi doirasida keng ko'lamli qurilish ishlari amalga oshirilib, 3 mingga yaqin eskirgan xonadon o'rnida 100 ming nafar aholi yashashi uchun mo'ljallangan zamonaviy ko'p xonadonli uy-joylar, ijtimoiy soha obyektlari hamda zarur infratuzilma inshootlari barpo etilmoqda.

Qurilish tashkilotlari mas'ullari va arxitektorlar massivning zamonaviy qiyofasini shakllantirish loyihalarini takomillashtirish, aholi uchun qulay sharoitlarni yaratish loyihalarini viloyat rahbariga taqdim etishdi.



Samarqand shahrining Sartepa, Sug'diyona va Ipak yo'li hududlarini is-siqlik bilan ta'minlov-chi "RK-2" markaziy qozonxona foydalanishga topshirildi.

Yigirma yildan buyon ishlamayotgan markaziy qozonxona rekonstruksiya qilinishi, 39,4 kilometr issiqlik quvvatlari tortilgani, umumiy quvvati 100 mVt bo'lgan 3 ta zamonaviy qozonlar o'rnatilishi natijasida 22 ta ijtimoiy soha obyekti, 381 ta ko'p qavatli uydagi 19250 ta xonadonda yashovchi aholini uzluksiz issiqlik energiyasi bilan ta'minlash imkoniyati yaratildi. Bugungi kunda xonadonlarni issiqlik tizimiga ulash ishlari bosqichma-bosqich davom etmoqda.

ViLOYAT hokimi A.Boboyev issiqlik ta'minoti yetkazib beriladigan ushbu hududdagi ko'p qavatli uylarga xizmat ko'rsatuvchi boshqaruv organlari vakillari hamda mas'ullar bilan suhbatlashib, xonadonlarni issiqlik tizimiga ulash ishlarini qisqa kunlarda yakunlash bo'yicha topshiriqlar berdi.



A.Boboyev Samarqand shahridagi Imom Moturidiy majmuasida eronlik mutaxassislar ishtirokida qurilish-rekonstruksiya ishlarini tashkil qilish jarayoni, foydalanilayotgan materiallar sifati, o'ziga xos jihatlari xususida fikr almashdi. Majmua hududiga manzarali daraxtlar ekish, yashil maydonlarni sug'orish, irrigatsiya tarmoqlarini tortish, yo'laklar barpo etish bo'yicha takliflarni tingladi.

Hozirda ziyoratgoh hududida 100 o'rinni masjid, kirish pesh-toqi, ilmiy markaz, kutubxona, muzey va avtoturargoh qurilishi amalga oshirilmoqda. Shuningdek, 2 ta minora, ayvon va ayvonchalar qad rostlashi kutilmoqda.

ViLOYAT hokimi Burhoniddin Marg'inoniy qabri joylashgan hududda maqbara qurish ishlari bilan ham tanishar ekan, qurilish ishlarida milliy me'morchilik an'analaridan keng foydalanish yuzasidan tavsiyalar berdi.



Payariq tumani-dagi Imom Buxoriy majmuasida ayni paytda so'nggi pardozlash, binolarning ayrim qismlariga milliy va me'moriy bezaklar o'rnatish ishlari amalga oshirilmoqda.

Mas'ullar bilan muloqotda A.Boboyev majmuaning har bir elementi yuqori sifat va belgilangan talablarga mos bo'lishi lozimligini ta'kidladi.

Majmuani saqlash va hududini obodonlashtirish, xo'jalik faoliyatini yuritish uchun tegishli mas'ullar tayinlanib, ziyoratchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mavjud infratuzilmani zamonaviy talablar asosida tashkil etish yuzasidan vazifalar belgilandi.



Mamlakatimiz qishloq xo'jalik xodimlari kuni viloyatimizda ham keng nishonlandi. Sana munosabati bilan o'tkazilgan tantanali marosimda viloyat hokimi Adiz Boboyev ishtirok etib, qishloq xo'jaligi sohasida mehnat qilib kelayotgan fidoyilarni tabrikhladi.

– So'nggi yillardagi global iqlim o'zgarishlari, xususan, bahorda yog'ingarchilikning kam bo'lishi va yoz faslida haroratning keskin ko'tarib ketayotgani, suv resurslaridagi taqchillik dehqonlarimizning iroda hamda matonatini sinovdan o'tkazmoqda, – dedi A.Boboyev. – Lekin ana shunday murakkab sharoitda soha xodimlarining davlat tomonidan faol qo'llab-quvvatlanishi, keyingi yillarda amalga oshirilgan islohotlar hamda dehqon va bog'bon, chorvadorlarimizning, suvchilari-mizning boy tajribasi tufayli barcha yo'nalishlarda yuqori natijalarga erishyapmiz.

Tadbirida qishloq xo'jaligi sohasida samarali mehnat qilib kelayotgan bir guruh xodimlar "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi fidoyisi", "Namunali tomorqachi", "Mehnatkash dehqon", "Ilg'or fermer" ko'krak nishonlari, viloyat hokimligining faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Yerga mehr berganlar – el e'zozida



“Milliy armiya — ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni!”

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 34 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar ana shu shior ostida «Vatanparvarlik oyiligi» bilan boshlandi.

Shu munosabat bilan Markaziy harbiy okrugda ommaviy axborot vositalari vakillari uchun press-tur tashkil etildi.

Dastlab ishtirokchilar Markaziy harbiy okrug qo'shinlariga qarashli harbiy qismda askarlar, ofitser va serjantlar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

– Okrugda 7/24 tartibida ishlovchi kutubxona, "O'q otish markazi", o'quv binosi, mashg'ulot xonalari, sport zal, sohibqiron Amir Temur va jadidchilik harakati namoyandalari-ning hayoti va ijodi, ularning siyosiy faoliyatiga bag'ishlangan ko'rgazmalar nafaqat harbiy xizmatchilar, balki yoshlarni ham harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy g'urur tuyg'ularini uyg'otish va shijoatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda, – deydi harbiy qism komandiri o'rinbosari Qosimjon Mahkamov. – Shuningdek, harbiy yizmatchilarning farzandlariga qulaylik yaratish maqsadida bu kerdanlilar, nush, nemis tillari hamda sport turlari bo'yicha bepul to'garaklar ham tashkil etilgan bo'lib, ularga mutaxassis serjant va ofitserlarni biriktirganmiz. Ushbu to'garaklar va kutubxonaga shu hududda yashovchi fuqarolar, jumladan, kam ta'minlangan oilalar farzandlari ham jalb qilinmoqda.

Oylik doirasida Samarqand shahrining markaziy ko'chalarini bo'ylab harbiy orkestrning vatanparvarlik marshi sadosi ostida viloyatdagi harbiy qismlar xizmatchilari, milliy gvardiya, mudofaa va favqulodda vaziyatlar boshqarmalari, mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti xodimlari hamda keng jamoatchilik vakillarining harbiy yurishi tashkil etildi.

Shundan so'ng Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida «Vatanparvarlik oyiligi»ning ochilishiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Unda so'zga chiqqanlar milliy armiyamiz qudratini yanada mustahkamlash, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar xususida to'xtalib o'tdilar. Harbiy xizmatchilar tomonidan namoyish etilgan chiqishlar, harbiy texnika va qurol-aslahalar ko'rgazmasi yoshlarda katta taassurot qoldirdi.

F.RO'ZIBOYEV.

Baxshitepada “BEHBUDIY BOG'I” yaratildi

Toyloq tumanida atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog, jadidchilik harakatining yirik namoyandalardan biri Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligi munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi.

Tadbirlar Behbudiy tavallud topgan Baxshitepa mahallasida barpo etilgan "Behbudiy bog'i"ning ochilish marosimi bilan boshlandi. Unda viloyat hokimi o'rinbosari Rustam Qobilov, ziyolilar, keng jamoatchilik vakillari va yoshlar ishtirok etdi.

Marosimda so'zga chiqqan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Farmon Toshov, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti professori, jadidshunos olim Halim Saidov, Mahmudxo'ja Behbudiyning chevarasi Shohruh Behbudiy hamda boshqalar ulug' ma'rifatparvarning hayoti va serqirra ijodi, milliy uyg'onish yo'lidagi fidokorona faoliyati, uning boy ilmiy-adabiy merosining bugungi avlod tarbiyasidagi ahamiyati haqida so'z yuritdilar. — Bugun Mahmudxo'ja Behbudiy tug'ilgan qishloqda uning xotirasiga bag'ishlab bog' yaratilgani meni shu tuman farzandi sifatida, qolaversa, jadidshunos olim sifatida juda xursand qildi, — deydi Halim Saidov. — Bu maskanda, ya'ni bog' hududida Behbudiyning byusti o'rnatilgani, kutubxona, ma'rifat maskani va uy-muzey tashkil etilgani yoshlarimiz uchun bilim, ma'rifat va vatanparvarlik ruhini shakllantirishda muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Mazkur maskan shu mahalladan, Mahmudxo'ja Behbudiy avlodidan bo'lgan ma'rifatparvar tadbirkor Raufxon Xodiyev homiyligida bunyod etildi. E'tiborli jihati shundaki, u bir necha yillardan beri mahalla hududida joylashgan 15-maktabda Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va boy ijodiy merosiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni muntazam ravishda tashkil etib kelmog'ga. Raufxon Xodiyev tashabbusi bilan maktabda bilim va iqtidori bilan

ajralib turgan 15 nafar a'lochi o'quvchi uchun "Behbudiy" nomli maxsus stipendiya joriy etilgan.

Tumanning Shopo'lat mahallasidagi madaniyat markazida "Behbudiy hayot maktabi" — yoshlarga ibrat mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi. Tuman hokimi Behzod Rahmatullayev Behbudiy hayoti va u qoldirgan boy ma'naviy merosining ahamiyati xususida so'z yuritdi. Konferensiyada jadidshunos olim Halim Saidov ma'ruza qilib, ma'rifatparvar bobolarimiz qoldirgan ma'naviy merosni chuqur o'rganish va uni yoshlar ongiga singdirish masalalariga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidladi.

Tadbirlar doirasida viloyat musiqali drama teatrlarining ijodiy jamoasi tomonidan "Mahmudxo'ja Behbudiy" dramasi tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi. Asarda ulug' ma'rifatparvarning murakkab taqdiri, xalq taqdiri uchun kurashi va fidoyiligi yorqin badiiy obrazlar orqali ifodalandi.

Shuningdek, tuman maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolajonlar va maktab o'quvchilaridan tashkil topgan "Turon" havaskor yoshlar teatri tomonidan sahnalashtirilgan tomoshalar ham ishtirokchilarda katta qiziqish uyg'otdi.

O'tkazilgan bu tadbirlar ulug' ajdodlarimiz xotirasini e'zozlash, ularning ma'naviy merosini asrab-avaylash va yosh avlodni milliy g'oyalar, ma'rifat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Baxshitepada yaratilgan "Behbudiy bog'i" esa kelgusida ham ilm-ma'rifat va ma'naviyat maskani sifatida xalqimizga xizmat qilishi shubhasiz.

To'liq SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).



PIROTEKNIKA dan foydalanish TARTIBGA solinadi

Senatning yaqinda bo'lib o'tgan o'n birinchi yalpi majlisida "Pirotexnika buyumlarining muomalasi to'g'risida"gi Qonun ko'rib chiqilib, ma'qullandi. Hujjat pirotexnika vositalari ta'rifi, xavflilik sinflari, aylanma tartibi va davlat nazoratini aniq belgilaydi, shuningdek, ma'muriy jazolarni keskin oshiradi. Aslida pirotexnika vositalarining qonunga xilof muomalasiga qarshi choralar tizimli ravishda kuchaytirilmoqda. Biroq chetdan noqonuniy olib kirish holatlarini to'liq cheklash qiyin bo'lgani uchun cheklov va tartibchala qonun darajasida aniqlik kiritish zarurati tug'ilgandi.

Shu bois pirotexnika buyumlari xavflilik darajasiga ko'ra 5 toifaga bo'linmoqda. Qonunga ko'ra, I toifaga kiruvchi, xavfli hudud radiusi 0,5 metrdan oshmaydigan pirotexnika buyumlari erkin muomalada bo'ladi. Qolgan toifadagi pirotexnika vositalari muomalasi taqiqlanmoqda.

Qonun bilan pirotexnika buyumlari tushunchasi ochib berilib, pirotexnik tarkibning yonishi (portlashi) yordamida optik, akustik, elektr va boshqa vizual effektlarni hosil qilish uchun mo'ljallangan qurilmalar pirotexnika buyumlari toifasiga kirishi, pirotexnika buyumlari ularning xavflilik zonasi, shu jumladan, atrofdagi fazoning zararlanish darajasidan kelib chiqib, xavflilikning I-V sinflariga bo'linishi belgilanmoqda.

Pirotexnika buyumlarining erkin va cheklangan muomalasi belgilab qo'yilmoqda. Jumladan, qonun bilan xavflilikning I toifasiga kiruvchi pirotexnika vositalari, ya'ni bengal mayoqchalari, stol fontanlari, xlopushka kabi xavfli hudud radiusi 0,5 metrdan oshmaydigan pirotexnika buyumlari erkin muomalada bo'lishi aniq qayd etilmoqda.

Ya'ni, mazkur toifaga kiruvchi pirotexnika buyumlarini ishlab chiqarish, ularni saqlash, foydalanish va boshqa turdagi harakatlar uchun hech qanday taqiq bo'lmaydi.

Xavflilikning II toifasiga kiruvchi pirotexnika vositalari, ya'ni petardalar, ochiq maydonlarda foydalanishga mo'ljallangan pirotexnik fontanlar kabi xavfli hudud radiusi 5 metr gacha bo'lgan pirotexnika buyumlari fuqarolar va jamoat xavfsizligiga yuqori xavf manbai hisoblanishi sababli ularning muomalasi fuqarolar va yuridik shaxslar uchun to'liq taqiqlanishi belgilanmoqda.

Xavflilikning II-V sinflariga kiruvchi pirotexnika buyumlarini jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarish, tayyorlash, O'zbekiston hududiga olib kirish, tashish, jo'natish, o'tkazish, sotib olish, saqlash va ulardan foydalanish taqiqlanmoqda. Biroq davlat ishtirokidagi mudofaa sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqarishga, tayyorlashga, saqlashga, tashishga va o'tkazishga ruxsat berilmoqda.

Xavflilikning III-V sinflariga kiruvchi pirotexnika buyumlarini mushakbozlik tashkil etilishi belgilangan ommaviy tadbirlar o'tkazish maqsadida, xavflilikning II-V sinflariga kiruvchi pirotexnika buyumlarini sanoat va harbiy maqsadlarda O'zbekiston hududiga olib kirishga, tashishga, saqlashga va ulardan foydalanishga ruxsat berilishi belgilanmoqda.

Yana bir muhim jihati, pirotexnika buyumlarining mushakbozlik tashkil etilishi belgilangan ommaviy tadbirlarni o'tkazish maqsadidagi muomalasi aniq belgilab qo'yilmoqda.

Xususan, xavflilikning III-V sinflariga kiruvchi pirotexnika buyumlarini O'zbekiston Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq mushakbozlik tashkil etilishi belgilangan ommaviy tadbirlar o'tkazish maqsadida O'zbekiston hududiga olib kirish, tashish, saqlash va ulardan foydalanish Mudofaa vazirligi tomonidan amalga oshirilishi, shuningdek, pirotexnika buyum-



larini O'zbekiston hududiga olib kirish, tashish, saqlash va ulardan foydalanish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi nazarda tutilmoqda.

Pirotexnika buyumlarining muomalasi ustidan davlat nazorati Milliy gvardiya, ichki ishlar va bojxona organlari tomonidan amalga oshirilishi mustahkamlanmoqda.

Shu bilan birga, pirotexnika buyumlarining muomalasi ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlari pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, O'zbekiston hududiga olib kirish va uning hududidan olib chiqish, tashish, o'tkazish, sotib olish, saqlash va ulardan foydalanish holatlarini aniqlash hamda ularga barham berish, shuningdek, aybdor shaxslarni qonunda belgilangan javobgarlikka tortish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z vakolatlari doirasida amalga oshirishi belgilanmoqda.



Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda pirotexnika buyumlaridan noqonuniy foydalanganlik (185-1-modd) uchun belgilangan ma'muriy jazo chorasi kuchaytirilmoqda. Jumladan, ushbu turdagi qonunbuzarlik uchun amaldagi bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan yigirma baravarigacha miqdordagi jarima jazosi — bazaviy hisoblash miqdorining 15 baravaridan 25 baravarigacha oshirilmoqda.

Maryam NIYOZOVA,
Oliy Majlis Senati
a'zosi.



E'tibor qiling, Isroil bosh vaziri o'ziga qo'yilayotgan ayblovlar uchun mamlakat prezidentidan afv so'rayapti. Ya'ni, hali sud qarori chiqmasdan qilmishi uchun jazolanmaslikni so'rayapti. Ammo bizning Konstitutsiyamizga ko'ra, afv etish sudlarimiz tomonidan hukm qilingan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.

Yaqinda Konstitutsiya qabul qilingan kun munosabati bilan Prezidentimiz 615 nafar mahkumlarni afv etish to'g'risidagi hujjatni imzolaganidan ko'pchilik xabardor. Masala shundaki, ayrim kishilar bu kechirimlilikni butunlay jazodan ozod etish, deb tushunmoqda. Shu sabab ayrimlarda jinoyatchilar nega ozod qilib yuborilmoqda, degan savol tug'ilmoqda. Umuman, Prezident qanday jinoyatchilarni afv qiladi, degan tushunmovchilik ham yo'q emas.

MA'LUMOT O'RNIDA ...

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-dekabrda "Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida" gi farmoniga asosan viloyat bo'yicha 54 nafar shaxslarga nisbatan afv tatbiq etilgan.

Ushbu shaxslarning 26 nafari (20 nafari pro-batsiyadan, 6 nafari jazoni ijro etish muassasasidan) asosiy jazodan to'liq ozod etilgan, 14 nafari jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan, 14 nafari ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo (axloq tuzatish ishlari) bilan almashtirilgan.

Afv etilganlarning 2 nafari ayollar 3 nafari 60 yoshdan oshgan erkaklar, 20 nafari yoshlar hamda 1 nafari taqiqlangan tashkilotlar faoliyatida qatnashgan shaxslar tashkil etgan.

Bizningcha, shu faktlarning o'ziyoq afvning mohiyati, jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida aniq tasavvur beradi. Shunday bo'lsa-da, aytish o'tish lozim afv muayyan mahkumga nisbatan individual tartibda amalga oshiriladi. Bu uni oqlaydigan va u tomonidan jinoyat

Odatda Konstitutsiyadagi 109-moddaga ko'pam e'tibor qilinmaydi. Vaholanki, unda juda muhim masalalar belgilangan. Aslida Asosiy qonunning ushbu modda o'rin olgan XIX bobida O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining vakolati, huquqlari va boshqa masalalar qayd qilingan. 109-moddaning 23-bandidan davlat rahbari "...O'zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etadi" ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Kimlar

afv etildi, NEGA?

Kutilgan savollarga kutilmagan javob

sodir etganlik faktini bartaraf qiladigan holat hisoblanmaydi. Afv etish - mahkumni jazodan to'liq yoki qisman ozod etadigan yoki sud tomonidan tayinlangan jazoni boshqa yengilroq jazo bilan almashtiradigan yoxud sudlanganlikni olib tashlaydigan insonparvarlik akti hisoblanadi.

PREZIDENT VAKOLATI YOKI ILTIMOSNOMA

Afv - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolati. Uni qonun doirasida amalga oshirish uchun 2018-yil 8-maydagi farmon bilan O'zbekiston Respublikasida afv etishni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlangan.

Qoidaga ko'ra, dastlab mahkum yoki jazoni o'tab bo'lgan shaxs, shuningdek, qonun hujjatlari bilan afv etish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish huquqi berilgan shaxs (organ)lar tomonidan Prezident nomiga yozma shaklda iltimosnoma beriladi.

Iltimosnoma:

- jazoni ijro etish muassasasining ma'muriyati yoki hukmni ijro etuvchi boshqa organ tomonidan;
- sudlanganlikni olib tashlash bo'yicha afv etish to'g'risidagi iltimosnoma berilgan hollarda mustaqil ravishda yuboriladi.

10 KUNDA KO'RIB CHIQILADI

Iltimosnomalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi maslahat-kengash organi hisoblangan Komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari bo'yicha maslahatchisi bo'linmalarining fuqarolik va afv etish shu'basini Komissiyaning ishchi organi hisoblanadi.

Shu'ba o'rganish natijalari bo'yicha afv etish to'g'risidagi iltimosnoma kelib tushgan kundan boshlab 10 kun davomida:

- iltimosnomani belgilangan tartibda ko'rib chiqish uchun qabul qiladi;
- agar hujjatlarni berishda yoki rasmiylashtirishda ushbu nizom talablari buzilishiga yo'l qo'yilgan bo'lsa, iltimosnomani ko'rib chiqish uchun qabul qilishni rad etadi va iltimosnomani u kelgan organga yoxud uni yuborgan shaxsga qaytaradi. Bunda afv etish to'g'risidagi iltimosnoma aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilgandan keyin, u qaytarilgan kundan boshlab bir oydan kechiktirmasdan takroran taqdim etilishi mumkin.

Iltimosnomani Komissiya tomonidan ko'rib chiqish muddati iltimosnoma kelib tushgan kundan boshlab 3 oydan oshmasligi lozim.

NIMALAR E'TIBORGA OLINADI?

Iltimosnomani ko'rib chiqishda:

- sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi;
- jazoni o'tash yoki ijro etish vaqtida mahkumning xulq-atvori (tuzalishi);
- o'talغان (ijro etilgan) jazo muddati (hajmi);
- mahkumga nisbatan muqaddam amnistiya akti, afv etish qo'llanilganligi yoki jazodan muddatidan ilgari shartli ozod etilganligi, jazoning yengilroq jazo bilan almashtirilganligi;
- jinoyat oqibatida yetkazilgan zararning qoplanaganligi;
- mahkumning shaxsi, sog'lig'i holati, sudlanganligi, oilaviy ahvoli va yoshi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Bosh prokuraturasi va Davlat xavfsizlik xizmatining xulosalari;
- Komissiya iltimosnomani ko'rib chiqish uchun muhim deb hisoblagan boshqa holatlar.

Iltimosnoma ijobiy ko'rib chiqilganda, Komissiya Prezidentga taklif kiritadi. Rad etilganda, shu'ba bu haqda 1 kun davomida iltimosnoma bergan shaxsni xabardor qilish uchun iltimosnoma kelib tushgan organga yoki iltimosnomani mustaqil ravishda yuborgan shaxsga xabar beradi.



Y.MARQAYEV tayyorladi.

Ilmiy tadqiqotlar amaliyotga tatbiq etilyaptimi?

Qadimda odamlar dorivor o'simliklar bilan davolangan. Tibbiyot rivojlangach, tabiiy mahsulot bo'lsa-da, dorivor o'simliklarga e'tibor kamaydi.

Bugun Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti olimlari ellikdan ortiq dorivor o'simliklar ustida tadqiqot olib boryapti. Dorivor o'simliklardan ayrimlari institutning tajriba dalasida ko'paytirilib, qayta ishlanib, sotuvga chiqarilmoqda.

- Dorivor o'simliklardan moliyalashtirilgani artishok o'simligi bo'lib, bugungi kunda undan institutda dorivor choy tayyorlanayapti, - deydi institutning dorivor o'simliklar va oziq-ovqat texnologiyasi kafedrasida assistenti Vahob Rahmonov. - Bundan tashqari, Samarqand bo'znochi o'simligi ustida ham ilmiy tajribalar olib borilyapti. Bu o'simlik jigar va o't kasalliklarida shifobaxsh hisoblanadi. Shuning uchun farmasevtikada undan keng foydalaniladi. Kafedramizda baliq va parrandalar uchun ozuqa ishlab chiqarishni ham yo'lga qo'yganmiz. Ozuqaning nomi Biofood chicken ko'lib, uning tarkibida azolla va vyaska suv o'simliklari mavjud. Biofood chicken ustida ish olib borgan institut talabasi Azimjon Hamroyev o'tgan yili "Ulug'bek vorislari" respublika tanlovida g'olib bo'lib, 7,5 million so'mlik mukofotni qo'lga kiritdi. Ushbu ozuqani moliyalashtirib, sotuvga chiqarishni reja qilaypmiz.

Shuningdek, institutda rozmarin o'simligidan kukun, sprej (purkagich), efir moyi ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Sprej soch to'kilishi-

ning oldini olsa, efir moyi asab tizimiga ijobiy ta'sir etadi.

Institut laboratoriyasida zanjabil, artishok, tog' rayhoni, bo'yimadaron kabi dorivor o'simliklar yetishtirilyapti.

- Artishok bo'yicha ko'p yillardan beri tadqiqot olib boraman, - deydi dorivor o'simliklar va oziq-ovqat texnologiyasi kafedrasida dotsenti Eldor Isomov. - Shu bo'yicha ilmiy izlanishlar qildim, nufuzli jurnallarda maqolalar chop ettirdim. Bu yil institut dala tajriba maydonining 15 sotixida artishok o'simligi yetishtirdik. O'simlik barglarini terib olib, quritib, mahsulotni qayta ishlab sexida qadoqlab, sotishni yo'lga qo'ydik. Yoshlarning startap loyihalari doirasida institutda dorivor choylarni qadoqlash uchun asbob-uskunalar olingan. Artishok jigar, buyrak, qandli diabet, stomatit kabi kasalliklarning oldini olishda foydali hisoblanadi. Artishokning asli vatani O'rta Yer dengizi, Kanar orollari bo'lib, dastlab yovvoyi holda uchragan. Mamlakatimizga 1990-yillarda reproduksiya qilinib, ko'paytirib kelingan. Artishok choyini sotish bo'yicha Sog'liqni saqlash vazirligidan ruxsatnoma olingan. Bugun uni dorixonalardan topish mumkin.

Bundan tashqari, institutda turli mavsumda foydalanish maqsadida ba'zi sabzavot mahsulotlarini quritish ustida tadqiqot ishlari olib borilyapti. Masalan, olimlar yaqinda qizil lavlagini quritib, qadoqlashdi. Quritilgan qizil lavlagini qish mavsumida ovqat va salatlariga ishlatish mumkin.

Bu yil institutning tajriba dalasida dorivorlik xususiyati yuqori bo'lgan



Abujahl tarvuzlari ham yetishtirildi.

- Men Abujahl tarvuzini ildizidan tashqari oziqlantirish orqali uning hosildorligini oshirish bo'yicha tajriba olib bormoqdaman, - deydi institut magistranti Jaloliddin Xushvaqto'v. - Tajribamga deyarli bir yil bo'ldi. Abujahl tarvuzi xalq tilida achchiq tarvuz ham deyiladi. Men bu tarvuzni yetishtirishda ildiziga emas, balki barglariga ikkita preparat orqali ishlov berdim. Atigi bir sotixlik maydonda o'tkazgan tajribamdan yetarlicha natija oldim, ya'ni tarvuzchalarning hajmini ikki baravar kattalashtirishga erishdim. Abujahl tarvuzi qadimdan O'rta Osiyo mamlakatlarida qo'llanib kelingan dorivor o'simlik hisoblanadi. Tarvuz yallig'lanishga qarshi, ichak yo'llariga va gijjalarni tushirishda ham qo'llaniladi. Hozirda bu o'simlikning tarkibidagi ba'zi moddalar organizmda qandning miqdorini me'yoriylashtirishda juda foydali deb topilmoqda.

Abujahl tarvuzi achchiq bo'lganligi tufayli yosh bolalarga bir kunda bir mahal yarim qoshiqchadan, kattalarga bir qoshiqchadan asal bilan aralashtirilgan holda iste'mol qilish tavsiya etiladi. Agar organizmda gijjalar ko'p bo'lsa, bir kunda ikki mahal iste'mol qilish mumkin. Bu tarvuzning gibrid navlari O'zbekistonda keng tarqalgan bo'lib, uning hajmi katta va ichi qizg'ish. Tarvuzning dorivorlik xususiyatiga ega navini Urgutdan, ya'ni tabiblardan topib, urug'idan ko'paytirdim. Nasib bo'lsa, keyingi yillarda Abujahl tarvuzini katta maydonlarga ekib, bozorlarga chiqarish niyatidaman.

Institut olimlari dorivor o'simliklarni yetishtirish, qayta ishlash va sotuvga chiqarish orqali aholi salomatligini tabiiy mahsulotlar yordamida tiklashni maqsad qilishgan.

Xurshida ERNAZAROVA.

Ekologiya va atrof-muhitni asrash ayni shu kunlarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Chunki tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik, havo va suvning ifloslanishi, noqonuniy qurilish hamda chiqindilarni nazoratsiz tashlash kabi holatlar nafaqat tabiat, balki inson salomatligi va ekologik xavfsizlikka ham jiddiy tahdid solmoqda.

Shu sababli atrof-muhitga zarar yetkazilishining oldini olish va zararni qoplash masalalari fuqarolik sudlarida alohida mas'uliyat bilan ko'riladigan ishlar sirasiga kiritilgan.

Ekologik nizolarni ko'rish tartibi Konstitutsiya, atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlar, Yer va Suv kodekslari, hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilishga oid qonunlar bilan tartibga solinadi. Bu hujjatlarga muvofiq, atrof-muhitga yetkazilgan har qanday zarar miqdoriga qarab qoplanishi shart. Mazkur masalalar sud tomonidan fuqarolik yo'li bilan hal qilinadi. Ekologik huquqbu-zarliklar keng jamoat manfaatlariga ta'sir qilgani uchun da'vo arizasini zarar ko'rgan fuqarolar va korxonalar, ekologik jamoat tashkilotlari, mahalliy hokimiyat, ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi hamda prokuratura organlari taqdim etishi mumkin. 2024-yil qabul qilingan qonun o'zgarishlari

Atrof-muhitni asrashda adolat izlayapsizmi?

Sizga sud yordam beradi

esa prokurorning davlat manfaatlarini himoya qilish maqsadida ekologik ishlar bo'yicha sudga murojaat qilish vakolatlarini yanada mustahkamladi.

Sudga berilgan ariza protsessual talablarga muvofiqligi tekshirilgandan so'ng ish yuritishga qabul qilinadi va Fuqarolik-protsessual kodeksida belgilangan tartibda odatda bir oy muddatda ko'rib chiqiladi. Ekologik ishlarining o'ziga xos jihati shundaki, zarar miqdorini aniqlash ko'p hollarda maxsus ekspertizalar, laboratoriya tahlillari, ekologik nazorat organlari dalolatnomalari, sanitariya xulosalari va foto-video materiallarga tayanishni talab qiladi. Sud barcha dalillarni o'rgangan holda zararni undirish, atrof-muhitni tiklash choralarini belgilash, noqonuniy faoliyatni to'xtatish yoki cheklash kabi qarorlar qabul qilishi mumkin. Sud qarori esa ijro organlari tomonidan majburiy tarzda amalga oshiriladi.

Ekologik ishlar amaliyotida bir qator murakkabliklar ham uchraydi: zararning uzoq muddatda namoyon bo'lishi, aniq hisob-kitoblar uchun maxsus metodikalar talab etilishi, aybdor shaxsni aniqlashning qiyinli-

gi va jamoat manfaatlarini inobatga olish...

Ayniqsa, bugungi kunda havo ifloslanishi, suv tanqisligi, chiqindilarning ko'payishi va iqlim o'zgarishi sharoitida bunday ishlar yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Fuqarolik sudlari tomonidan ekologik nizolarning hal etilishi atrof-muhitga yetkazilgan zararning qoplanishi, tabiatni muhofaza qilish qonunlarining amalda samarali ishlashi, korxonalarning ekologik mas'uliyati oshishi va fuqarolarning ekologik huquqlari himoya qilinishiga xizmat qiladi. Muhimi, bu jarayonlar davlatning ekologik xavfsizlikni ta'minlash siyosati va barqaror kelajakni yaratish maqsadlariga to'la mos keladi. Shu bois ekologik ishlar bo'yicha sud nazorati tabiatni tiklash, noqonuniy faoliyatni cheklash va kelajak avlod uchun toza va sog'lom muhit qoldirishga qaratilgan muhim ijtimoiy mexanizm sifatida ahamiyat kasb etmoqda.

Vahob ASQAROV,
viloyat sudi sudyasi.
Shuhrat TURDIALIYEV,
fuqarolik ishleri bo'yicha
Past Darg'om tumani sudi raisi.

Dala chetlari e'tibordan chetda qolmaydi

2024-yil 30-dekabrda Prezidentimizning "Qishloq xo'jaligi maydonlaridagi qo'shimcha imkoniyatlardan foydalangan holda mahsulot yetishtirishni ko'paytirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Viloyat o'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi tomonidan qaror ijrosini ta'minlash doirasida dala chetlaridan samarali foydalanish, suv tarmoqlari atrofidagi maydonlarda to'qsonbosti ekinlari ekish uchun zarur chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Joriy yilda ekilgan mevali daraxt ko'chatlarini xatlovdan o'tkazib, zarar ko'rganlarini yangilariga almashtirish, ko'chat va urug' yetishtiruvchi tadbirkorlarni fermer xo'jaliklari bilan hamkorlikka jalb qilish, suv tarmoqlari yetib bormagan joylarga suv sig'implari o'rnatish ishlari olib borilmoqda. Dala chetlari va kanal atroflaridagi maydonlar muntazam tozalanib, dala chetlaridagi maydonlarni ikkilamchi ijaraga berish mexanizmlari takomillashtirildi.

Qarorda nazarda tutilgan 36 oygacha imtiyozli davr bilan 84 oy muddatga yillik 18 foizdan kreditlar ajratish, garov ta'minoti va sug'urta masalalari bo'yicha tuman bo'limlari fitosanitar nazorat inspektorlari tomonidan aholiga batafsil tushuntirish berilmoqda.

O'simlikni sug'orish uchun suv yetishmayapti, dala chetiga qaerdan suv yetkazamiz, dala chetlari mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekilgan, soyada o'simlik rivojlanmaydi-ku, deb bildirilishi mumkin. Suv tanqisligi muammosi butun mintaqada kuzatilmoqda, ammo aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash vazifasi ham bor. Shuning uchun dala chetlarida ham suv tejovchi texnologiyalardan foydalanilgan holda qisqa muddatda yetishtirish mumkin bo'lgan, suv talab qilmaydigan to'qsonbosti ekinlar joylashtirilmoqda. Agrotexnologiyalar asosida mevali bog' maydonlarining dala chetlariga ismaloq urug'lari, sarimsoqpiyoz, piyoz, kashnich, petrushka, ukrop, sabzi va shu kabi to'qsonbosti ekinlarining urug'lari, olcha, olxo'ri, behi, chilonjiyda kabi daraxt ko'chatlari ekilmoqda.

Viloyatda 2026-yilda dala chetlaridagi maydonlarga qishloq xo'jaligi ekinlari urug'lari ekishning prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.

Unga ko'ra, viloyatda 4018 ta fermer xo'jaligining 1592 gektar maydonida ekin, 1 million 228 ming tup mevali daraxt ko'chati ekish ko'zda tutilgan. Xususan, noyabr-dekabr oylarida 307,1 ming dona ko'chat ekildi.

Bundan tashqari, viloyatda 2026-yilda kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarga qishloq xo'jaligi ekinlari urug'lari ekishning prognoz ko'rsatkichlari ham tasdiqlandi. Unga ko'ra, viloyatdagi 878 fermer xo'jaligining kanal va kollektor atrofidagi jami 786 gektar maydonida ekin ekish rejalashtirilgan bo'lib, shundan 236 gektariga sabzavot, 181 gektariga poliz, 165 gektariga don va dukkakli, 110 gektariga moyli va 94 gektariga boshqa turdagi ekinlar ekilishi ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, 2026-yilda ushbu 878 ta fermer xo'jaliklari tomonidan kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi 786 gektar maydonda 610 ming dona mevali daraxt ko'chatlari ekiladi.

Ayni paytda tumanlarda dala chetlaridagi maydonlarga to'qsonbosti ekinlarni ekish ishlari to'liq yakunlandi mevali daraxt ko'chatlarini ekish ishlari davom etmoqda.

Baxtigul G'ANIYEVA,
viloyat o'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi axborot xizmati rahbari.

Joriy yil 24-noyabrdan 5-dekabrgacha Samarqand shahrida xavf ostida turgan yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi to'g'risidagi konvensiya (CITES) ishtirokchilarining 20-konferensiyasi (COP20) bo'lib o'tdi. Shu munosabat bilan Zarafshon milliy tabiat bog'i "ZOI" xalqaro ekologik tarmog'i bilan hamkorlikda yoshlar va o'quvchilar uchun ekologik talim tadbirlari o'tkazildi.

Yoshlar va ekologiya

Zarafshon milliy tabiat bog'i ilmiy xodimlari bog'ning chegara hududida joylashgan Jomboy tumanidagi 56, 25, 33, 36, 41- va Bulung'ur tumanidagi 28, 38, 58-umumtalim maktablarida yosh avlodga ekologik madaniyat borasida tushunchalar berishdi. Bunda barqarorlik tamoyillarini va yashil texnologiyalarni o'quv jarayonida keng joriy etish, shuningdek, o'quvchilarda innovatsion fikrlash hamda ijtimoiy mas'uliyat ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratildi.

Zarafshon milliy tabiat bog'i ekologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etishi, ushbu bog'ning tabiiy muhit bilan uyg'un saqlanishi, ekologik tozalikni asrash tajribasi ekotizm rivojiga o'rnatilgan sifatida baholalanadi.

O'zbekistonning umumiy biologik xilma-xilligi 27 mingdan ortiq turni tashkil etadi. 4500 ga yaqin o'simlik turlari va 2000 dan ortiq zamburug'

turlari uchraydi.

O'zbekiston Respublikasining "Qizil kitob"iga 314 turdagi o'simlik turi kiritilgan. O'zbekiston faunasida umurtqali hayvonlarning 706 turi mavjud. Umurtqasiz hayvon turlari esa 15 mingdan ortiqni tashkil etadi. Shundan Zarafshon milliy tabiat bog'imizda o'simliklarning 300 ga yaqin turi, qushlarning 218 turi, sut emizuvchilarning 26 turi, sudralib yuruvchilarning 10 turi, baliqlarning 23 turi, amfibiyalarning 2 turi monitoring natijasida aniqlangan.

O'zbekiston Respublikasining "Qizil kitob"iga o'n turdagi o'simlik turi kiritilgan. O'zbekiston faunasida umurtqali hayvonlarning 5 turi mavjud, umurtqasiz hayvon turlari esa 3 ta.

E.XOLMANOV,
SamDU Geografiya va ekologiya yo'nalishi mustaqil izlanuvchisi.
Zarafshon milliy tabiat bog'i ilmiy xodimi.



REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

YER MAYDONI IJARAGA BERILADI!

Ishtixon tumani "Mehnat-rohat texnikalari" MMTP hududidagi "Ishtixon Gold Grapes" fermer xo'jaligiga (STIR: 305717559, asosiy faoliyat turi uzumchilik-bog'dorchilik) tegishli 554-konturdagi 10,14 gektar sug'orilib haydaladigan yer maydoni uzumchilik yo'nalishida jismoniy va yuridik shaxslarga shartnoma asosida ikkilamchi ijaraga beriladi.

Manzil: Ishtixon tumani Damariq mahallasi, Damariq qishlog'i.
Murojaat uchun telefon: +99894-762-02-84.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Saidov Abdusamexga (2024-yil 15-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko'chasi, 80-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Murodov Baxtiyor Xayitovichga (2025-yil 14-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat

etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlo ko'chasi, 13-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida (2024-yil 10-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Ismailova Saidaga (2013-yil 6-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu



“Qand”_{ni} oshirsangiz, halovatingizni yo‘qotasiz

Vazningiz haqida ma'lumotga egamiz? Juda ko'p xastaliklar stress bilan bog'liqligini bilasizmi?

Nega yildan-yilga qandli diabet bilan kasallanganlar soni ortib boryapti? Har oyda 10-12 nafar bola shu kasallikka chalinayotgani ma'lum bo'lyapti, nega?

Salomatlik bilan bog'liq bu savollarga javobingiz bo'lishi juda muhim.

Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi viloyat filialida ommaviy axborot vositalari xodimlari uchun press-tur o'tkazildi. Unda markazda yil davomida amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumot berildi.

Aholi salomatligini muhofaza qilish bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar yirik islohotlarga aylandi, - deydi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi viloyat filiali bosh shifokori Gulzoda Negmatova. – Birlamchi bo'g'in bilan bir qatorda ixtisoslashgan markazlar ham uzoq yillar kutilgan shart-sharoit, zamonaviy uskunalar ega bo'ldi. Markaz misolida aytadigan bo'lsam, shu yilning o'zida 571 ta (shundan 439 tasi yuqori texnologiyali) jarrohlik amaliyoti bajarildi. Viloyatda 15 ta diagnostika va 6 ta davolash usullari joriy etildi. Tumanlarda kasallikni erta aniqlash va shunga qarab uni o'z vaqtida davolash yo'lga qo'yildi. Zamonaviy laboratoriya bo'limida 126 turdagi tahlillar bajarilmoqda. Qalqonsimon bez kasalliklarini aniqlash va qiyosiy tashxislash maqsadida eng muhim tahlillar amalga oshirilmoqda. Bolalardagi past bo'ylik sindromini aniqlashda ishlatiladigan somatotrop gormon, stimulyatsion probalarini o'tkazish ham shu yerda bajarilaypti.

Semizlik aniqlangan bemor-

larda bioempedans tahlili asosida individual sog'lomlashtirish dasturlari joriy etildi. Yil davomida 145 nafar bemorda bioimpedans tahlili asosida sog'lomlashtirish rejasi tuzilib, nazoratga olindi.

Keyingi yillarda qandli diabet xastaligi yosharib bormoqda. Ilgari viloyat miqyosida bir yilda 10-15 nafar bolada qandli diabet aniqlangan bo'lsa, hozirda har oyda shuncha bola ushbu kasallikka chalinaypti. Bu xastalikning sabablaridan biri vazn ortishi bilan bog'liq ekani ko'pchilikka ayon. Afsuski, tadqiqotlarimizda shaharda yashayotgan bolalarda vazn ortishi bilan bog'liq holatlar ko'p uchrayotganini kuzatyapmiz.

To'g'ri, qo'rquv, ota-onasida bu kasallik bilan og'riganlik holati, stress ham kasallik keltirib chiqaradi. Ammo barchasini nazorat qilish mumkin. Xususan, jismoniy faollik eng yaxshi usul. Jismonan faol insonlar vaznini me'yorida ushlab turishi barobarida stressdan ham o'z vaqtida xalos bo'lishadi.

Kasallikning oldini olish maqsadida skriningga alohida e'tibor qaratyapmiz. Yil davomida 1 million 112 mingdan ortiq aholini skrining tekshiruvlaridan o'tkazdik. Bu tekshiruvlar davomida 539 ming 367 nafar aholida qonda qand miqdori o'lchangan va bu jami skriningdan o'tkazilgan 40 yosh va undan yuqori aholining 48,5 foizini tashkil qiladi. Skriningdan o'tgan aholi orasida 5526 nafarida birinchi marta diabetoldi holat, 41242 nafarida ortiqcha vazn, 6190 nafarida qandli diabet va 7910 nafarida semizlik aniqlandi. Ularga zarur tavsiyalar berildi.

Press-tur davomida ommaviy axborot vositalari xodimlari ham chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tdi.



Gulruh MO'MINOVA.

munosabat bilan merosxo'rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Nam German Georgiyevichga (2025-yil 28-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Urgut tumanidagi O'Imasov Dilmurod Zokir o'g'li yakka tartibdagi tadbirkorining (JSHSHIR: 30412933990155) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Toyloq tumanidagi "HASAN BOBO HUMO NUR" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 312290250) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi "XO'JAKULOVA FARIZA 7777" oilaviy korxonasining (STIR: 308779187) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning bir bo'lagiga aylanib, butun dunyo haqidagi ma'lumotlarni qisqa satrlarda o'qishga ko'nikib, bachkana videolarga o'rganayotgan bir paytda matbuotga munosabatimiz haminqadar bo'lib borayotgani sir emas. Xo'sh, odamlarni gazetxonlikka chorlash uchun o'quvchilardan nima talab etiladi-yu, gazeta xodimlariga yana qanday mas'uliyat yuklaydi?

ILM

tafakkur
bilan
parvoz qiladi

Uchrashuv



ab o'zgartirgan. Bugun shunday davralarda ko'proq bo'lib, ularning fikrini olishga intilishimizdan maqsad ham shu.

Odatda, turli davralarda bo'lganimizda, ilm kishilari, ziyolilar bilan suhbatlashganimizda birinchi aytiladigan gap "nega tanqid qilmaysizlar?", "nima uchun gazetalariga haliy majburiy obuna davom etyapti", "televizorda ko'radigan ko'rsatuv yo'q", degan gaplar bo'ladi. Bugun esa bunday gap-so'zlar biroz kamaygandek. Chunki kimnidir tanqid qilish, jamiyatdagi muammo va illatlarni ko'rsatish odamlar e'tiborini tortadigan holat emas. Shusiz ham ijtimoiy tarmoqlarda, internetda bunga har kuni bir necha mar-



etmasdan, chin ma'noda ziyoli bo'lishning imkonini yo'q.

Shuning uchun ijodkorlar bilan uchrashuv o'qituvchilar uchun ham fikrlash, muloqot maydoni vazifasini o'taydi. Bugun universitetimizda 400 dan ortiq o'qituvchilar faoliyat yuritib, olti mingdan ziyod talaba tahsil olmoqda.

O'qituvchi, talabalarimiz orasida ijodga qiziqadigan, she'r, hikoyalar yozadiganlari bor. Yaqinda universitetimizda faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar nechog'lik ijodkor, ya'ni maqolalari, o'quv qo'llanmalar chiqarishidagi faolligi haqida ularning taxminiy soni bilan qiziqdim. Chamalab ko'rsam, besh foizga yaqinida shunday faollik bor. Bunday uchrashuvlar o'qituvchilar uchun ham bir ruhlanirish bo'ladi, nazarimda.



Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida "Zarafshon" gazetasi xodimlarining professor-o'qituvchilar, talabalar bilan uchrashuvida ijod, kitobxonlik, gazetxonlik haqida so'z bordi.

- Keyingi yillarda oliy ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, yangiliklar yoshlar hayotida katta rezonans bermoqda, - **deydi universitet rektori, biologiya fanlari doktori, professor Xudonazar Yunusov.** - Tizimda eng ilg'or texnologiyalar qo'llanilishi barobarida, xalqaro hamkorlik rivoji har bir o'qituvchining o'z ustida izlanishiga turtki bo'layotir. Mana shu jarayonda kitobxonlik, gazetxonlik har qachongidan ustuvor masaladir. Bejiz oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan olimlar maqolalarini doimiy e'lon qilib borishi, jamoatchilikka fikrini yetkazishi qariyb majburiyat sifatida belgilanmagan. Chunki gazeta o'qimasdan, bugun jamiyatda sodir bo'layotgan voqealarni tahlil

Shakuriylar o'z vaqtida huzur-halovatdan kechib, xalqni ma'rifatli qilish uchun maktab ochmagan, kitob yozib, gazeta-jurnal chiqarmagan. Ular taraqqiyotga, farovon hayotga ilm orqali, xalqning tafakkur va dunyoqarishini kengaytirish orqali erishish mumkinligini bilgan, shuning uchun xalqni ilm-ziyoga chorlagan. Bugun-chi? Bugun hamma sharoit, imkoniyat bor, faqat o'qishga ishtiyoq, hafsala, ota-onalarning shaxsiy ibratini zarur.

- Ziyoli insonning ikkita jumlani to'g'ri tuza olmasligi bugun gazeta, jurnal o'qimaslik oqibati, - **deydi O'zbekiston jurnalistlari uyushmasi viloyat bo'limi rahbari Akram Haydarov.** - Qisqa video, turli «prikol»larga mukkamizdan ketishimizga ham gazeta o'qimasligimiz sababdir. Mazmunli axborotni qabul qilmaslik sindromi shakllangach, uni qayta tiklash oson kechmaydi.

Bugun afsuski, qonunlar-ku mayli, oddiy yangilikni yaxshiroq, soddaroq tilda tushuntirishga to'g'ri kelmoqda. Odamlar internet tiliga, ya'ni sodda tilga tobora moslashib boryapti, tilimiz o'z jozibadorligini yo'qotmoqda.

Endi odamlarni gazeta o'qishga majburlay olmaymiz, hozir internet asri, deb aytishingiz mumkin. Ammo hayotimiz faqat axborotdan, qolaversa, internet tilida berilayotgan ma'lumotdangina iborat emas. Chunki eng ommabop internet nashrida ham yaxshi yozilgan tahliliy maqolaning o'quvchilari kam. Tinimsiz, doimiy axborot esa inson miyasini har qanday ma'lumotdan, hatto o'qishdan ham to'liqtirib qo'yadi.

Muloqot davomida ustoz, talabalar ham o'z ijod namunalari o'qib, ijodkorlarga o'zlarini qiziqirtirgan savollar bilan murojaat qildi.

- Bugun oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan yirik islohotlar talabalarning zamonaviy bilim olishlari, ularning xalqaro darajadagi amaliyotni o'zlashtirishda dunyo bilan tengma-teng harakat qilishiga qaratilgan, - **deydi universitetning yoshlar**

masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori Alibek G'afforov.

- Ammo shu bilan bir qatorda talaba yoshlarni kitobxonlikka qiziqtirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish, bugungi axborot xuruji avj olgan bir pallada mediasavodxonligini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda ijodkorlar bilan uchrashuv, fikrlashuvlar bugun har qachongidan ko'ra ko'proq ahamiyatga ega. Yoshlarni turli yot g'oyalardan asrash, ularni kitobxonlikka qiziqtirish, tahliliy fikrlashni shakllantirish yo'lida olib borayotgan targ'ibot ishlarimiz yoshlarda ham qiziqish uyg'otayotganiga guvoh bo'lyapmiz va ulardagi ijodkorlikni qo'llab-quvvatlashga harakat qilyapmiz.

- Keyingi yillarda "Zarafshon" gazetasi kutubxonasidan" rukni ostida shu gazetada faoliyat yuritayotgan xodimlar maqolalaridan iborat bir nechta publististik nashrlar o'quvchilar qo'lga yetib bordi, - **deydi viloyat "Zarafshon" gazetasi bosh muharriri o'rinbosari G'olib Hasanov.** - Shu bilan bir qatorda "Samarqand tilshunoslari", "Samarqand arxeologlari", "Samarqand akademiklari" kabi kitoblar ham nashrdan chiqib, keng jamoatchilikka taqdim etildi. Olimlar bilan gazeta o'rtasida bunday hamkorlik uzoq yillik an'analar davom etayotgani bilan belgilanadi, shu jamiyatning ziyoli qatlami bugun o'z so'zini aytayotganini bildiradi. Yaxshi bilim, olimlar har doim jamiyatning eng peshqadam insonlari bo'lishgan va u yoki bu masalada jamoatchilikka munosabatini bildirib turgan. Aynan shu munosabat orqali jamiyat qaysidir ma'noda o'z tartibini belgilagan, kerak bo'lsa, o'zanini ham olimlarning xolis fikriga qar-

ta

dush

kelamiz.

Gazetalarda ham axborotdan ko'ra, tanqidiy-tahliliy materiallarga keng o'rin berilmoqda. Endigi gap ana shu maqolalarni o'qishda, ularga munosabat bildirishda. Afsuski, hozircha bu haqda ijobiy fikr aytay olmaymiz. Sababi, kattayu kichik o'qishdan ko'ra, eshitishga, 1-2 daqiqalik qisqa lavhalarni tomosha qilishga o'rganib qoldi. Mayli, buyam zamon zaylidir, buyam hozirgi axborot tezkorligining bir ko'rinishidir. Ammo mana shunday paytda mutolaa zavqini unutmasak, elektron shalkda bo'lsa ham kitob, gazeta-jurnal o'qishga vaqt, hafsala topa olsak - eng katta yutug'imiz shu bo'ladi. Bu bizning uchrashuvdan olgan eng katta sabog'imiz, xulosamizdir.

Tadbirida jurnalistlarning kitoblari taqdimoti ham o'tkazildi. Mualliflar kitob haqida, uning yozilishi, bunga turtki bo'lgan jarayonlar haqida ma'lumot berishdi.

Gulruh MO'MINOVA.

Somoniylar
davriga oid
tangalar



Ekspozitsiyada namoyish etilayotgan noyob eksponatlardan biri bu somoniylar tilla tangalari kolleksiyasi bo'lib, ushbu tangalar X asrlarga oid. Tangalar somoniy hukmdorlardan Nasr ibn Ahmad davrida Nishopurda zarb etilgan. Tangalarda kufiy yozuvida Qur'on oyatlari hamda tangani zarb etilgan davr, shahar va ushbu tangani zarb ettirgan hukmdor nomlari aks ettirilgan. Tangalar 958 probali tilladan ishlangan. Tangalar kolleksiyasi 1941-yilning dekabr oyida Samarqand shahridagi Dahbed ko'chasida olib borilgan qazishma ishlari vaqtida topilgan.

To'liqin BO'RIYEV.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 782 nusxada chop etildi. Buyurtma 580. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LOMLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.



Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

F.RO'ZIBOYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

Salomatlik burchagi



Ilk kunlarimizdagi
vaksina

Sil kasalligi dunyo bo'ylab hali ham keng tarqalgan infeksiya bo'lib, ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar uchun jiddiy xavf tug'diradi. Chaqaloqlarda immun tizimi to'liq shakllanmagani sababli ularda sil tezda og'ir shaklga o'tishi, meningit yoki umumiy tarqalgan holga kelishi mumkin. Shuning uchun BSJ emlanishi har bir bola uchun hayotiy ahamiyatga ega.

BSJ VAKSINASI NIMA UCHUN KERAK?

Birinchi navbatda og'ir sil shakllaridan himoya qiladi. Vaksina sil meningiti va disseminatsiyalangan silga qarshi kuchli immunitet shakllantiradi.

BSJ vaksinasining himoya kuchi 70-85 foizga yetadi.

Mazkur vaksina o'lim xavfini kamaytiradi. Emlangan bolalarda silning og'ir oqibatlarini bir necha marta kam kuzatiladi.

O'zbekiston va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyalariga ko'ra, BSJ vaksinasi chaqaloq tug'ilganidan keyingi 2-3 kun ichida amalga oshiriladi. Bu vaqtda bola hali infeksiya manbalari bilan ko'p aloqada bo'lmay emlash eng samarali hisoblanadi.

BSJdan keyin yelkada hosil bo'ladigan kichik chandiq - vaksinaning to'g'ri ishlaganini ko'rsatadi. Agar chandiq paydo bo'lmasa, bolani shifokor ko'rigidan o'tkazib, zarurat bo'lsa, qayta emlash tavsiya etiladi.

Dinara ADJABLAYEVA,

SamDTU ftiziatriya va pulmonologiya kafedrasi assistenti.